

PEDAGOGIK LOYIHALAR BO‘LAJAK O‘QITUVCHI FAOLIYATINING TARKIBIY QISMI

A.A.Nurmatov

O`zDJTU, Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik loyihalarni ahamiyati, ularni kasbiy rivojlantirish, pedagogik faoliyat doirasida yaratilgan loyihalar va ishlanmalarni pedagogik faoliyatning ilg‘or shakli sifatida baholash, ularni innovasion loyiha sifatida joriy etish imkoniyatini yaratishi, axborotli-kognitiv, ijtimoiy-rolli, xulq-atvorni rivojlantiruvchi loyihalar yosh avlodning shaxsiy o‘ssishi, axloqiy qadriyatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, bo‘lajak o‘qituvchi, loyiha, ishlanma, shaxsiy va kasbiy qarashlar, mustaqil fikrlash, shaxsiy rivojlanish.

Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy nuqtai nazarlari, qadriyatlari va dunyoqarashi uning pedagogik faoliyatida bevosita namoyon bo‘ladi. Uning ta’lim jarayonidagi yondashuvlari, fanga, talabalarga va kasbiga bo‘lgan munosabati aynan shu ichki qarashlar bilan shakllanadi. O‘qituvchi shaxsiyatining ijtimoiy-madaniy va ma’naviy mazmuni ta’lim mazmuniga ta’sir qilib, ta’lim tarbiya jarayonidagi munosabatlar, metodik tanlovlar va ish uslublarida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy qarashlarini tahlil qilishda ular tomonidan yaratilgan loyihalar, ta’limiy-metodik ishlanmalar va amaliy faoliyat mahsullarini har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlil orqali ularning ijtimoiy faolligi, ma’naviy olami, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati hamda ta’limga bo‘lgan yondashuvi aniq namoyon bo‘ladi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik jarayonida sifatli va mazmunli natijalarga erishishga zamin yaratadi.

Pedagogik faoliyatni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan tuzilgan loyihalar va ishlanmalar orqali ularning ta’limga bo‘lgan yondashuvi, metodik qarashlari va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlari aniq namoyon bo‘ladi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday loyihalar va ishlanmalarni mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda shartli ravishda uch asosiy turga

ajratish mumkin: axborotli-kognitiv, ijtimoiy-rolli, hamda o‘quvchi shaxsiyati va xulq-atvorini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turlar.

Axborotli-kognitiv loyihalar o‘quvchilarning bilim va tasavvur doirasini kengaytirishga xizmat qilsa, ijtimoiy-rolli yo‘nalishdagi ishlanmalar ularni ijtimoiy muammolarni anglash, hamkorlik va faol ishtirok orqali yechim topishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, xulq-atvorni rivojlantiruvchi loyihalar yosh avlodning shaxsiy o‘sishi, axloqiy qadriyatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu kabi turkumlash pedagogik tahlilni tizimlashtirish va o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini maqsadli ravishda baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat doirasida yaratilgan loyihalar va ishlanmalar ta’lim-tarbiya jarayonining mazmun va maqsad jihatdan turlicha, ammo o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ishlanmalar bilimlar, fikrlar va qadriyatlar maydonlaridagi o‘quvchi faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilib, ta’limning faqat ma’lumot berishga qaratilgan an’anaviy modelidan farqli ravishda, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni namoyon etadi. Xususan, bilimlar maydoni orqali kerakli axborot va nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratilsa, fikrlar maydonida tahliliy, tanqidiy va kreativ tafakkur ko‘nikmalari shakllanadi, qadriyatlar maydonida esa ma’naviy-axloqiy ruhdagi tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Loyihalar va ishlanmalarni pedagogik faoliyatning ilg‘or shakli sifatida baholash ularni innovasion loyiha sifatida joriy etish imkoniyatini yaratadi. Bu kabi yondashuv nafaqat ta’lim mazmunini boyitishga, balki o‘quvchilarda shaxsiy faollik, ijtimoiy mas’uliyat va insoniy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Aniq tajribalar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu loyihalar o‘quvchilarni bilimli, mustaqil fikrlovchi va yuksak qadriyatlarga ega shaxs sifatida shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyat doirasidagi loyihalar va ishlanmalarga katta qiziqish bilan yondashadilar. Bu qiziqish, avvalo, mazkur ishlanmalarning ilmiy-texnokratik paradigmalarga muvofiq kelishi, ya’ni ta’lim jarayonini insonparvar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qilishi bilan bog‘liq. Ushbu ishlanmalar ta’lim boshqaruvchisining (o‘qituvchining) pedagogik nuqtai nazarini hisobga olgan holda shakllantiriladi va shu sababli ham ta’limning individuallashtirish, differentsiallashtirish modelini

amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, bunday loyihalar va ishlanmalardan foydalanish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarini faqat ta’lim beruvchi emas, balki o‘quvchi timsolida ham tasavvur qila oladilar. Bu esa ularning kasbiy o‘zini anglash, empatik qobiliyati va metodik refleksiyasini shakllantiradi. O‘zini o‘quvchi o‘rnida tasavvur qilish orqali ular ta’lim jarayonidagi murakkabliklar va ehtiyojlarni yaxshiroq anglaydilar, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovasion izlanishlari uchun yangi o‘quv kurslarini joriy etish juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday kurslar orqali ularning tayyorlaydigan loyihalari va ishlanmalari mazmun va shakl jihatdan murakkablashadi, ilmiy va amaliy asoslar bilan boyiydi. Bu jarayonda asosiy qadriyatlar sifatida axborot, bilim va o‘zlashtirilgan o‘quv materiallari e’tirof etiladi. Garchi ushbu bilimlar yangi emasdek tuyulsa-da, ularni yangi kontekstda qo‘llash, ya’ni tanish tushuncha va dalillarni yangicha nuqtai nazardan uyg‘unlashtirish orqali innovasion yondashuv vujudga keladi. Shu orqali o‘quvchilar bilimlarni faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki ularni ijodiy qayta ishlash va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini ham rivojlantiradilar.

O‘quvchilar, avvalo, ta’lim jarayonida hissiy qadriyatli tajribaga ega bo‘lishlari lozim. Bunday tajriba ularning ta’limga shaxsan daxldorlik hissini kuchaytiradi, o‘z fikr va munosabatlarini anglashga, ularni muntazam ravishda takomillashtirishga undaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu o‘quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatidir. Ushbu yondashuv ta’lim mazmunini faol va ma’naviy boy jarayonga aylantiradi, o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi.

Aynan ijtimoiy-rolli ishlanmalarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning mazkur imkoniyatlaridan samarali foydalana olishlari talab etiladi. Bu turdagi ishlanmalar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy munosabat bildirish va muammolarga yangicha yondashish kabi muhim ko‘nikmalar shakllanadi. Jarayon davomida o‘quvchi o‘z nuqtai nazari, shaxsiy qarashlari va yechimlari bilan ishtirok etadi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishi hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

1. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов н/Д., 2000. – 352 с.
2. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. – СПб., 1999. – 242 с.
3. Ибрагимова Е.М. Непрерывная педагогическая подготовка учителя в системе допрофессионального и профессионального образования: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Казань, 1999.